IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: SY70368597

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti
rektori buyrug‘i

2026 -yil 22-sentabr **1-A/729-son** **Buxoro shahar**

“Hamkorlik asosida dars o‘tish to‘g‘risida”

Turkiya Sog‘liq bilimlari universiteti “Gistologiya” fani o‘qituvchislari 13-sentabrdan 11-oktabrgacha **Prof. Dr. Ayten Türkkani**, “Anatomiya” fani o‘qituvchisi 13-sentyabdan 04-oktabrgacha **Dr Öğr. Üyesi Necati Salman** Turkiya tibbiyot fakulteti talabalariga akademik mobillik doirasida 2026-2027 o‘quv yili mobaynida Gistologiya, Anatomiya fanrlaridan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tishini inobatga olgan holda xorijlik professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladigan darslarni yuqori darajada tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN

1. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor (L.N.Niyazov) va Turkiya tibbiyot fakulteti dekani (S.Sh.Qodirova)larga:

– xorijiy hamkor Turkiyaning Sog‘liq bilimlari universiteti bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirib, professor-o‘qituvchilarning malaka oshirishi va talabalarning akademik mobillik dasturlari yanada kuchaytirilsin;

– amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha belgilangan tartibda hisobot rasmiylashtirilsin.

2.Gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasi mudiri (J.J.Baxronov) Anatomiya, klinik anatomiya (OXTA) kafedrasi mudiri (A.B.Radjabov) ga:

–xorijlik professor-o‘qituvchi joriy yilning 13-sentabrdan 11-oktabrgacha olib boriladigan darslarning samarali o‘tishi uchun barcha sharoitlar yaratilsin;

–amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tegishli kafedralar tomonidan rasmiylashtirilishi nazoratga olinsin.

3.Bosh hisobchi (U.U. Mirzayev)ga:

–professor-o‘qituvchining yo‘l kira va turar joy bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari Sog‘liq bilimlari universiteti bilan 2025-yil 21-iyulda tuzilgan o‘zaro kelishuv shartnomasiga muvofiq amalga oshirilsin.

4. Mazkur buyruq ijrosi nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor G.J.Jarilkasinova, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor L.N.Niyazov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: *Sog‘liq bilimlari universiteti va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘rtasidagi 2024-yil 21-iyunda tuzilgan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum, 2025-yil 21-iyulda tuzilgan o‘zaro kelishuv shartnomasi hamda Sog‘liq bilimlari universitet rektorining 20.08.2026-650699-sonli buyrug‘i.*

Rektor ERI orqali imzolangan Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti **Sh.Teshayev**

Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR-kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin

XMJ9721